

BOLALARDA TEJAMKORLIK TARBIYASINI SHAKLANTIRISH.

Olimjonova Madina Olimjon qizi

Husniddin Umarov Egamboyevich

Guliston davlat universiteti Pedagogika
fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi,
ona tili o'qitish metodikasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Iqtisodiy tarbiya boshlang'ich sinf o'quvchisi tarbiyasining muhim muammolaridan biridir. "Iqtisodiy o'zgarishlarni ustivor deb hisoblayotganimiz, taqsimotning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan butkul voz kechayotganimiz hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirayotganimiz jamiyatni isloh qilishga qat'iy yondoshishimizning ifodasidir", degan edi muxtarama Birinchi prezidentimiz I.Karimov.

Kalit so'zlar: iqtisod, tejamkorlik, ta'lim-tarbiya, shakllantirish, maktabgaha ta'lim

O'quvchilar ongida iqtisodiy ta'limning asosiy tushunchalarini singdirishda mehnat tarbiyasidan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil fikrlovchi komil insonni shakllantirish to'g'risida fikrlar asoslab berilgan. Bolalarga iqtisodiy tarbiya berish eng avvalo oiladan boshlanadi va maktabgacha ta'lim muassasasida va maktabda davom ettirilishi, iqtisodiy tarbiyaning mazmuniga sharq mutafakkirlari katta e'tibor qaratib kelganliklari, oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash haqida batafsil yoritib berilgan. Ma'lumki, «iqtisod» so'zining ma'nosi keng bo'lib, chuqur mazmunga ega. Ko'p urindi bu so'z xalq ichida «tejamkorlik» so'zining sinomini sifatida qo'llaniladi. Tejamkorlik haqida so'z ketganda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikki tushunamiz. «Iqtisod» tushunchasiga, mashhur o'zbek muayyini Abdulla Avloniy quyidagicha ta'rif beradi: «Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur. O'quvchilar iqtisodiy ongining qaror topishi ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirishni, ularning jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish qonuniyatlarini, iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma'lumotlarni o'zlashtirib olishini, ularda fikrlash operatsiyalari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va boshqalar)ni rivojlantiradi va keyinchalik eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi. Shu sababli boshlang'ich sinflardanoq matematika darslarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish lozim. Iqtisodiy tarbiya — o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan (tashkil etilgan) pedagogik faoliyat, maxsus o'ylangan ish sistemasidir. Uni amalga oshirish jarayonida o'quvchilar tartibli va samarali iqtisodiyot haqida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish to'g'risida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida, amaldagi xo'jalik mexanizmi to'g'risida tushuncha va tasavvurlar majmuyini o'zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan axloqiy va ishchanlik fazilatlarining, ijtimoiy faollikning, tadbirkorlikning, tashabbuskorlikning, ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan, halol munosabatning shakllanishini ta'minlaydi. O'quvchilarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlardan unumli foydalanish lozim. Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadiga bir qator vazifalarni hal etish natijasida erishish mumkin. Bu vazifalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;
- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish,

- bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash;

- kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;

-o'quvchilarni iqtisodiy tahlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini ta'minlash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;-mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va hokazo. Manashunday tushunchalarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga sinfda va sinfdan tashqari ishlarda bosqichma bosqich singdirib borishimiz zarur. Bozor" so'zi sotuvchi va xaridorlarning o'zaro uchrashadigan , tovarlar oldi – sotdi qilinadigan joyni bildiradi.Bozor kishilar, korxonalar , davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini namoyon qiladi. Narxlar vositasida iqtisodiyotda rivojlanish bo'ladi, tovar ishlab chiqarganlar rag'batlantiriladi. Pul - bozor iqtisodida katta xizmat qiladi . Pul juda qimmatli qog'oz. Qiziq, tillani ham yoki oddiy tuzni ham pulga sotib olishar ekan. Barter usuli – o'rtaga pulni aralshtirmay, narsani narsaga tengma – teng almashtirish barter usuli deyiladi.Ota-onalarning o'quvchi barcha ehtiyojlarini so'zsiz qondirishga intilishlari tarbiyadagi katta xatodir. Ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak.

1. Bola o'z ota-onasining qaerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak. Umuman, Bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim.

2. Bolani oila byudjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, Bolaning o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishga odatlantirmaslik kerak.

3. Ota-ona O'quvchi halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani Boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari kerak.

4. Oilada tejamkorlik va ehtiyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab, ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish mumkin bo'ladi.

5. Bola faqat o'z buyumlarini emas, boshqalarning buyumlarini ham ehtiyot qilishga o'rganishi lozim. Tejab-tergab ish ko'rish odatlarini bolalarda mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Pulni tejab-tergab sarflashga o'rgatish muhim.

6. Oilada ota-onalar o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyotkor kishilar bo'lib yetishishlarida o'zlari namuna bo'lishlari kerak. Oilada mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik talablarga amal qilish lozim. O'quvchilarini tejamkorlik ruhida tarbiyalashda maqol va hikoyalardan foydalanish Bozor iqtisodiyoti oila tarbiyasida keng qo'llanib kelingan milliy qadriyat sifatidagi tajribalariga suyanishni ham taqozo etadi. Masalan, o'zbek oilalarida bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab kelganlar, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaganlar. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamasi. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrovdur. Alloh. Taolo isrof qiluvchilarni suymas».Ota-bobolarimizning o'z farzandlarini tejamkor bo'lishga undaganlarini xalq og'zaki ijodi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, tejamkorlik mavzui xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Zero, bu maqollar yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning dilida saqlanib kelgan. Maqollar kishilarning tarixiy tajribasi sifatida ko'pgina sinovlardan o'tib shakllanadi va chuqur ma'no kasb etadi. Mana ularning ayrimlari: «Tejagan-birga birni qo'shar, tejagan birini ham

boy berar», «Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun-fahmu-farosat», «O'zingnikini bir bor tejasang, xalqnikini ming bor teja», «Tejamligu rasomadlik-aka-uka, to'g'riligu halollik-opa-singil», «Tejamkor-olqish olar, isrofgar koyishga qolar» va hokazo.

ADABIYOTLAR:

1. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
2. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали.
3. 3 сон, 3 жилд. Б.102-105. 3. Юсупов О.Н. O'zbek poeziya namunalari tarjimasining ingliz tilidagi interpretatsiyasi. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. 3 жилд, 19 сон, - ТДПУ, 2019. Б.146-150.
4. Юсупов О.Н. Анализ проблемы стиля в художественном переводе. The Way of Science, 94. 2014.
5. Юсупов О.Н. Бадиий матннинг лингвокогнитив хусусиятлари. Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари, 1 (10), 35 - 37. 2017.
6. Юсупов О.Н. Специфика художественного перевода. Наука и Мир 2 (3), 170 - 172. 2014.
7. О.Н. Юсупов. Pride of Uzbek nation. The Way of Science 9 (31), 80-81
8. ОН Юсупов. Чет тили дарсларида таржима муқобиллигини яратиш асосида тилни ривожлантириш. Тил ва адабиёт таълими 2 (2), 96-99
9. О.Н. Юсупов. Стилистика. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 320 стр.
10. О.Н. Юсупов. Лексикология. I том, Ташкент, ТДПУ, 2017. 344 стр. 11. O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731 12. Yusupov O.N. Subtleties Of Literary Translation. İlköğretim Online (IOO) - Elementary Education Online 4 (4), 1987-199